

# QASHQADARYO VILOYATIDA CHAKANA VA ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI

*Dastlabki ma'lumot  
2023- yil yanvar-dekabr*



**Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo  
statistikasi bo'limi  
Tel. 75-221-44-28**

**Statistik ma'lumotlar** jamiyatda sodir bo'layotgan ijtimoiy-iqtisodiy hodisa va jarayonlarni tavsiflash va boshqarishning eng muhim vositasidir. Hozirda yuqori sifatli statistik ma'lumotlardan foydalanmasdan davlat siyosatida to'g'ri boshqaruv qarorlarini qabul qilish imkonsiz. Shular qatorida savdo statistikasi ko'rsatkichlarini shakllantirish ham muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Ulgurji va chakana savdo hamda umumiy ovqatlanish korxonalarini savdo aylanmasi statistikasi ko'rsatkichi shular jumlasidan.

## Chakana savdo aylanmasining o'sish sur'ati, % da



2024- yil 1- yanvar holatiga chakana savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalarini soni 7497 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 17 tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni 7480 tani tashkil qildi.

Shu jumladan, savdo sohasida yuridik shaxs tashkil etmasdan faoliyat olib borayotgan YATT va uyushmagan savdo (jismoniy shaxslar)ning kuzatuvlari asosida yig'ilgan ma'lumotlar, chakana savdo ko'rsatkichlariga kiritilgan.

**Chakana savdo aylanmasi** – savdo sohasida yakuniy iste'mol uchun aholiga tovarlarni donalab yoki ko'p bo'lmagan miqdorlarda naqd pulga (bank kartalari orqali) sotishni nazarda tutuvchi faoliyat.




Yuqorida qayd etilgan tadbirkorlik subyektlari faoliyati natijasida, 2023- yilning yanvar-dekabr oyida viloyatning chakana savdo tovar aylanmasi 21549,4 mlrd. so'mni tashkil etib, 2022- yilning yanvar-dekabr oyiga nisbatan 107,7 % ga yetdi.

Jumladan, yirik korxonalarining tovar aylanmasi 936,5 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 105,6 %), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi 18211,6 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 108,3 %), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi 2401,4 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 103,9 %) tashkil etdi.

	Jami, mlrd. so'm	2022- yil yanvar-dekabr oyiga nisbatan, foizda
<b>Viloyat bo'yicha</b>	<b>21549,4</b>	<b>107,7</b>
Qarshi sh.	5 475,9	107,2
Shahrisabz sh.	1 788,3	107,4
G'uzor	871,2	107,8
Dehqonobod	701,0	105,7
Qamashi	1 555,0	107,0
Qarshi	830,3	107,0
Koson	1 757,3	108,8
Kitob	1 117,7	107,5
Mirishkor	768,0	107,1
Muborak	592,2	109,7
Nishon	830,9	106,2
Kasbi	902,2	110,0
Ko'kdala	682,8	108,2
Chiroqchi	1 766,8	108,2
Shahrisabz	743,3	114,1
Yakkabog'	1 166,6	105,7


2023- yilning yanvar-dekabr oyida 2022- yilning yanvar-dekabr oyiga nisbatan viloyatning Shahrisabz (114,1 %), Kasbi (110,0 %) va Muborak (109,7 %) tumanlarida chakana savdo tovar aylanmasining eng yuqori o'sish sur'atlari qayd etildi.

## Chakana savdo tovar aylanmasi va o'sish sur'ati dinamikasi (yanvar-dekabr)




So'nggi 5 yillikda (2019-2023- yillar) chakana savdo tovar aylanmasining yuqori o'sish sur'ati 2022- yilda kuzatildi. Bunda chakana savdo tovar aylanmasi 2021- yilning mos davriga nisbatan 112,5 % ni tashkil qildi.

## 2023- yil uchun chakana savdo tovar aylanmasining o'sish sur'ati, oylar kesimida (foizda)



2023- yilning yanvar-dekabr oyida o'sish sur'ati **107,7 %** ni tashkil qildi.




Viloyat chakana savdo tovar aylanmasida eng yuqori ulushni Qarshi shahri 25,4 % bilan 5475,9 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Viloyat chakana savdo tovar aylanmasida eng quyi ulushni esa, Muborak tumani 2,7 % bilan 592,2 mlrd. so'mni tashkil etdi.


2022 - yilning mos davriga nisbatan, chakana savdo tovarlar aylanmasida barcha hududlarda o'sish kuzatildi.

*Hajmi, mlrd. so'm*




## Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik korxonalarining eng yuqori o'sish sur'atiga ega hududlar (foizda)

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi 2023 - yilning yanvar-dekabr oylarida statistik hisob-kitoblarga ko'ra, 18211,6 mlrd. so'mni tashkil etib, 2022-yilning yanvar-dekabr oyiga nisbatan 8,3 % ga oshdi. Viloyat miqosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 84,5 % ni tashkil etdi.




## Yirik korxonalarining eng yuqori o'sish sur'atiga ega hududlar (foizda)


Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining tovar aylanmasi hajmi, 2022- yilning yanvar-dekabr oyiga nisbatan 5,6 % ga o'sdi va 936,5 mlrd. so'mni tashkil qildi. Bu esa umumiy savdo hajmining 4,3 % ulushiga to'g'ri keldi.



## CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING HUDUDLAR KESIMIDA ULUSHI, (foizda)




 Yirik korxonalar

 Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik

Tahliliy natijalarga ko'ra chakana savdo tovar aylanmasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulushi bo'yicha Mirishkor (99,3 %), Nishon (99,2 %) va Dehqonobod (99,1 %) tumanlari yetakchilik qilmoqda. Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining ulushi 4,3 % ni tashkil etib, eng katta ulush Shahrisabz (12,0 %), Qarshi shahri (8,5 %), Muborak (8,4 %), Koson (5,4 %) tumanlarida kuzatildi.

**4,3 %**

**95,7 %**



 Yirik korxonalar


 Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik



## Hududlar kesimida ma'lumot, *ming so'mda*



2023- yilning yanvar-dekabr oyi holatiga o'rtacha aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi 6119,4 ming. so'mni (2022- yilning yanvar-dekabr oyiga nisbatan 105,4 %) tashkil etdi.






Ichki savdo ko'rsatkichlarini shakllantirishda **uyushmagan savdo tovar aylanmasi** ham hisoblanadi. Bunga dehqon (oziq-ovqat) bozori hamda chorva mollari, parrandalar va boshqa hayvonlar bozorida jismoniy shaxslar tomonidan amalga oshirilgan savdo hajmlari kiradi. Uyushmagan savdo tarkibiga jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hisobga olinadi.



## Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar taylanmasi o'sish sur'ati (2023- yil yanvar-dekabr), foizda



**Dehqon bozorlari**



**Chorva bozorlari**


**Dehqon (oziq-ovqat) bozori** – keng turdagi qishloq xo'jaligi oziq-ovqat mahsulotlarining va uni qayta ishlashdan olinadigan mahsulotlarning savdo rastalari, savdo o'rinlari, turg'un savdo shaxobchalari (shu jumladan savdo pavilonlari, kioskalari)dan foydalangan holda chakana savdoni tashkil etgan doimiy yoki vaqtincha amal qiluvchi mulkiy kompleks hisoblanadi.

	<b>Jami, mlrd. so'm</b>	<b>2022- yil yanvar- dekabr oyiga nisbatan, foizda</b>
<b>Viloyat bo'yicha</b>	<b>1121,5</b>	<b>102,0</b>
Qarshi sh.	191,0	104,9
Shahrisabz sh. <i>tumanlar:</i>	69,1	105,4
G'uzor	52,9	103,5
Dehqonobod	31,5	100,6
Qamashi	67,1	101,3
Qarshi	0,0	105,0
Koson	35,5	102,7
Kitob	69,2	104,7
Mirishkor	7,6	100,5
Muborak	51,9	102,9
Nishon	57,3	101,6
Kasbi	33,3	102,4
Ko'kdala	55,6	103,9
Chiroqchi	262,8	103,9
Shahrisabz	33,5	101,4
Yakkabog'	126,0	101,5


\* – xo'jalik yurituvchi subyektlar va yakka taribdagi tadbirkorlar (YATT)ni qo'shmagan holatda;

– jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari va chorva (parranda) mollari sotilishi hisobga olingan.

## Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar aylanmasi o'sish sur'atlari (2023- yil yanvar-dekabr)














## Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar aylanmasi hajmi, mlrd. so'm (2023- yil yanvar-dekabr)



Viloyat bo'yicha 2023-yilning yanvar-dekabr oyida uyushmagan savdo tovar aylanmasi 2401,4 mlrd. so'mni tashkil etib, 2022-yilning yanvar-dekabr oyiga nisbatan 103,9 % ni tashkil etdi. Shu jumladan, 12 bozor va 12 bozor (chorva) (oylik) kuzatuvlari ma'lumotlariga asosan, dehqon bozorlarida savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslarning uy xo'jaliklarida yetishtirgan mahsulotlarini sotish hajmi 1121,5 mlrd. so'mni (102,0 %), chorva mollari va parrandalar sotuvchi jismoniy shaxslarning savdo aylanmasi hajmi 1279,9 mlrd so'mni tashkil etdi (102,1 %).













2023-yilning yanvar-dekabr oyida viloyatning barcha hududlarida joylashgan dehqon bozorlarida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sotuvchi jismoniy shaxslarning tanlanma kuzatuvini o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi 1121,5 mlrd. so'mni tashkil qildi. Bunda asosiy yirik hajm yangi uzilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari savdosiga (623,8 mlrd.so'm) to'g'ri keldi.

## Uyushmagan savdo aylanmasida qishloq xo'jaligi mahsulotlari savdosi hajmi va ulushi

<b>Yangi uzilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari</b> <b>623,8 mlrd. so'm</b>  <b>55,6 %</b>	<b>Non va non mahsulotlari</b> <b>184,9 mlrd. so'm</b>  <b>16,5 %</b>	<b>Don mahsulotlari (mosh, loviya, guruch va boshqalar)</b> <b>49,1 mlrd. so'm</b>  <b>4,4 %</b>
<b>Tovuq go'shti</b> <b>78,3 mlrd. so'm</b>  <b>7,0 %</b>	<b>Quritilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari (yongoq, bodom, pista va boshqalar)</b> <b>29,6 mlrd. so'm</b>  <b>2,6 %</b>	<b>Tuxum</b> <b>26,4 mlrd. so'm</b>  <b>2,4 %</b>
<b>Ziravorlar</b> <b>58,5 mlrd. so'm</b>  <b>5,2 %</b>	<b>Sut va sut mahsulotlari</b> <b>29,9 mlrd. so'm</b>  <b>2,7 %</b>	<b>Chorva mollari va parrandalari uchun har xil yem – xashak</b> <b>11,2 mlrd. so'm</b>  <b>1,0 %</b>
<b>Tuzlamalar</b> <b>23,0 mlrd. so'm</b>  <b>2,0 %</b>	<b>Gullar, o'simlik va nihol ko'chatlari</b> <b>6,8 mlrd. so'm</b>  <b>0,6 %</b>	<b>Nooziq-ovqat tovarlar</b> <b>0,0 mlrd. so'm</b> <b>0,0 %</b>

2023- yilning yanvar-dekabr oyida, viloyatning barcha hududlarida joylashgan chorva (parranda) bozorlarida parrandalar va chorva mollari sotuvchi jismoniy shaxslar tanlanma kuzatuvi o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi 1279,9 mlrd. so'mni tashkil etdi. Bunda har-xil yoshdagi qoramollar savdosi 876,7 mlrd.so'm, qo'y va echkilar – 342,2 mlrd. so'mni, otlar – 53,7 mlrd. so'mni, parrandalar – 7,3 mlrd. so'mni tashkil qildi.

**Uyushmagan savdo aylanmasida chorva mollari (parrandalar) savdosi hajmi va ulushi**

<p><b>2 yoshdan katta bo'lgan qoramollar</b></p> <p><b>563,3 mlrd. so'm</b></p>  <p>44,1 %</p>	<p><b>1 yoshdan 2 yoshgacha bo'lgan yosh mollar</b></p> <p><b>243,2 mlrd. so'm</b></p>  <p>19,0 %</p>	<p><b>1 yoshgacaha bo'lgan yosh mollar</b></p> <p><b>70,2 mlrd. so'm</b></p>  <p>5,5 %</p>
<p><b>Qo'ylar</b></p> <p><b>197,6 mlrd. so'm</b></p>  <p>15,4 %</p>	<p><b>Otlar</b></p> <p><b>53,7 mlrd. so'm</b></p>  <p>4,2 %</p>	<p><b>Echkilar</b></p> <p><b>144,6 mlrd. so'm</b></p>  <p>11,3 %</p>
<p><b>Kurka, o'rdak, g'oz</b></p> <p><b>4,4 mlrd. so'm</b></p>  <p>0,3 %</p>	<p><b>Tovuqlar</b></p> <p><b>2,9 mlrd. so'm</b></p>  <p>0,2 %</p>	<p><b>Quyionlar</b></p> <p><b>0,0 mlrd. so'm</b></p>  <p>0,0 %</p>
<p><b>Qushlar</b></p> <p><b>0,0 mlrd. so'm</b></p>  <p>0,0 %</p>		

## UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO AYLANMASI

2024- yil 1- yanvar holatiga umumiy ovqatlanish sohasida faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalarini soni 1501 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 1 tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni 1500 tani tashkil qildi.

	Jami, mlrd. so'm	2022- yil yanvar- dekabr oyiga nisbatan, foizda
<b>Viloyat bo'yicha</b>	<b>607,5</b>	<b>111,0</b>
Qarshi sh.	229,8	127,3
Shahrisabz sh. <i>tumanlar:</i>	48,2	127,2
G'uzor	37,2	141,6
Dehqonobod	15,3	106,9
Qamashi	10,4	105,2
Qarshi	21,9	110,4
Koson	18,9	103,3
Kitob	50,9	97,2
Mirishkor	7,1	102,1
Muborak	45,4	82,8
Nishon	43,5	89,8
Kasbi	15,5	99,6
Ko'kdala	8,5	107,6
Chiroqchi	21,2	100,9
Shahrisabz	11,6	104,5
Yakkabog'	22,2	98,8

2023- yilning yanvar-dekabr oyida ovqatlanish korxonalarining savdo aylanmasi 607,5 mlrd. so'mga yetdi. 2022- yilning mos davriga nisbatan 111,0 % ga oshdi. Bunda savdo aylanmasining 97,4 % ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga to'g'ri keldi.




## Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi

Hududlar kesimida ma'lumot

	Hajmi, mlrd. so'm	Ulushi, foizda
<b>Viloyat bo'yicha</b>	<b>3398,7</b>	<b>100,0</b>
Qarshi sh.	3 104,9	91,4
Shahrisabz sh.	9,5	0,3
<i>tumanlar:</i>		
G'uzor	3,1	0,1
Dehqonobod	4,5	0,1
Qamashi	1,3	0,0
Qarshi	173,2	5,1
Koson	9,0	0,3
Kitob	21,0	0,6
Mirishkor	7,5	0,2
Muborak	5,9	0,2
Nishon	7,1	0,2
Kasbi	1,4	0,0
Ko'kdala	2,2	0,1
Chiroqchi	27,7	0,8
Shahrisabz	0,6	0,0
Yakkabog'	20,0	0,6


Ushbu ko'rsatkichni hududlar kesimida solishtirganda eng yuqori hajm Qarshi shahri (3104,9 mlrd. so'm), Qarshi (173,2 mlrd. so'm) va Chiroqchi (27,7 mlrd. so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

### Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi. (mlrd. so‘m)



2023- yilning yanvar-dekabr oyida avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi (*motorli transport vositalarini ta‘mirlash va texnik xizmat ko‘rsatishdan tashqari*) 3398,7 mlrd. so‘mni tashkil etdi va o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 26,0 % ga oshdi. Shuningdek, yirik korxonalar savdo hajmi 1755,0 mlrd. so‘m (o‘sish sur‘ati – 77,0 %), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyetklari savdo hajmi – 1643,7 mlrd. so‘mni (o‘sish sur‘ati – 392,0 %) tashkil qildi.


### Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi os‘ish sur‘ati, foizda





**Ulgurji savdo tovar aylanmasi** – qayta sotish maqsadida sotib olingan va tadbirkorlik faoliyatida foydalanish yoki o‘z foydalanishi (qayta ishlash) uchun uchinchi tomon tashkilotlari va yakka tartibdagi tadbirkorlarga o‘zgartirmagan holda jo‘natilgan tovarlarning ushbu tovarlar uchun haq to‘lanadigan yoki to‘lanmaganligidan qat’iy nazar qiymati.

## Hududlar kesimida ulgurji savdo tovar aylanmasi hajmi, mlrd. so‘mda



Viloyat bo‘yicha 2023- yilning yanvar-dekabr oyida ulgurji savdo tovar aylanmasi 7256,8 mlrd. so‘mni tashkil etib, 2022- yilning mos davriga nisbatan 7,0 % ga o‘ydi.

## Savdo aylanmasi va ulushi

11,4 %

828,6 mlrd. so‘m

**Yirik korxonalar**

88,6 %

6428,2 mlrd. so‘m

**Mikrofirma va kichik korxonalar**

Kichik biznes subyektlarining ulgurji savdo aylanmasidagi ulushi statistik hisoblarga qaraganda 6428,2 mlrd. so‘mni tashkil qilib, 2022- yilning mos davriga nisbatan 110,9 % ga to‘g‘ri keldi. Viloyatda ushbu sektorning ulgurji savdo hajmidagi ulushi 88,6 % ni tashkil qildi.

## ULGURJI SAVDO AYLANMASIDA YIRIK VA KICHIK BIZNES KORXONALARI SAVDO HAJMI VA O'SISH SUR'ATI

2024- yil 1- yanvar holatiga ulgurji savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni 2281 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 15 tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni 2266 tani tashkil qildi.

Ulgurji savdo tovar aylanmasida yuqori o'sish sur'atlariga ega eng yirik korxonalar Qarshi (152,5 %), Kasbi (129,2 %) va Koson (110,4 %) tumanlarida kuzatildi.

	Jami mlrd. so'm	2022- yil yanvar- dekabr oyiga nisbatan, foizda
<b>Viloyat bo'yicha</b>	<b>7256,8</b>	<b>107,0</b>
Qarshi sh.	3030,6	105,2
Shahrisabz sh.	661,8	113,0
<i>tumanlar:</i>		
G'uzor	217,5	108,4
Dehqonobod	62,7	196,5
Qamashi	146,7	79,1
Qarshi	632,5	114,7
Koson	748,4	107,9
Kitob	401,1	106,3
Mirishkor	212,8	97,5
Muborak	113,2	99,8
Nishon	130,8	103,2
Kasbi	231,3	124,7
Ko'kdala	90,5	360,2
Chiroqchi	247,8	81,3
Shahrisabz	174,5	108,9
Yakkabog'	154,5	109,6